


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



REGIONAL VA O'RTA OSIYO GEOLOGIYASLYA NEFTGAZLILIGI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 300000 Ishlabchiqarishtexniksoha

Ta'lif sohasi: 310000 Muhandislik ishi

Ta'lif yo'naliishi: 5311700 Foydali qazilma konlari geologiyasi,
qidiruv va razvedkasi (neft va gaz
konlari)

Qarshi-2021y.

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2021-yil
“28” 08 dagi “L”-sonli Uslubiy Kengashida tasdiqlandi.

Tuzuvchi:

X.R.Axmedov. -QMII, «Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi» kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

I.S.Ochilov -QMII, «Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi» kafedrasi katta o‘qituvchisi.

X.N.Julliyev - “Koson NGQE”MCChJ bosh geologi.

Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2021yil 30.08 dagi “L” sonli bayonnomasi).

I. O‘quv fanining dolzarbligi va oliv kasbiy ta’limdagagi o‘rnini

Ushbu dastur O‘rta Osiyo va unga tutash bo‘lgan Regional geostrukturalarni geologik tuzilishini va bunday geologik geostrukturalarda neft va gaz to‘plamlarining hosil bo‘lishini hamda neftegazgeologik rayonlashtirishning turli ierarxik elementlarini joylashishi haqidagi ma’lumotlarni qamrab oladi.

II. O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad talabalarga Foydali qazilmalar geologiyasi va qidirish ishlari (neft va gaz) bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fan o‘qitilishidan maqsad – soha bo‘yicha mutaxassislarini ta’lim standartida talab qilingan bilimlar bilan ta’minlash hamda ularni fikrlash doirasini regional mashtabdagi ko‘nikmalar bilan boyitish.

O‘quv fanini o‘rganishning asosiy vazifalari: O‘rta Osiyo va unga tutash bo‘lgan regional hududlardagi litosfera plitalarini chegaralash, har bir litosfera plitasida (o‘rganilayotgan hududga nisbatan) regional geostruktura elementlarini ajratish, ajratilgan regional geostruktura elementlarining geologik tuzilishini, ya’ni stratigrafiyasi, litologiyasi, geologik rivojlanish tarixini o‘zlashtirish, regional geostruktura elementlarida neftgaz to‘plamlarini joylashishini va bunday neftgazlilikning sabablarini muayyan misollar miqyosida ko‘rib chiqish.

III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

1-Modul. Regional va O‘rta Osiyo geologiyasi va neftgazliliginin umumiyligi asoslari

1-mavzu. Regional va O‘rta Osiyo geologiyasi va neftgazliliqi faniga kirish

“Regional va O‘rta Osiyo geologiyasi va neftgazliliqi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Avvalgi kurslarda o‘zlashtirilgan bilimlari bilan bog‘liq holda ushbu fanning asosiy tushunchalari;